

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021/Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

RASHIDOVA FERUZA RASULOVNA

**VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTIDA
GENDER MASALASI TALQINI
(Sharlotta Bronte asarlari misolida)**

10. 00. 04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan – 2024

UO‘K: 821.111.09-31(091)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Rashidova Feruza Rasulovna

Viktoriya davri adabiyotida gender masalasi talqini (Sharlotta Bronte asarlari misolida)..... 5

Рашидова Феруза Расуловна

Интерпретация гендерного вопроса в викторианской литературе (н апримере творчества Шарлотты Бронте)24

Rashidova Feruza Rasulovna

Interpretation of the gender issue in Victorian literature (on the example of the work of Charlotte Brontë) 44

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

.....48

**NAMANGANDAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021/Fil.76.05 RAQAMLI ILMY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

RASHIDOVA FERUZA RASULOVNA

**VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTIDA
GENDER MASALASI TALQINI
(Sharlotta Bronte asarlari misolida)**

10. 00. 04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan – 2024

Falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2745 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz rus, (rezyume)) Namangan davlat universiteti veb-sahifasining www.namdu.uz va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikov Zoxid Yakubjanovich

filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna

filologiya fanlari doktori, professor

Nasriddinov Dilshod A’zamqulovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/31.03.2021.Fil.76.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan shahar, Boburshox ko‘chasi 161 uy; Tel: 0 (369) 22885 02; faks: 0 (369) 22885 02; e-mail: info@namdu.uz.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316 uy. Tel: 0 (369) 227 01 44.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

N.A.Mamadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.A.Sidiqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.n., dotsent

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlarda o‘z aksini topgan gender munosabatlar, ayollarning jamiyatdagi o‘rni hamda ayollar muammolarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami tobora ortib bormoqda. Keyingi yillarda bu yo‘nalishda turli davr, mintaq va adabiy muhitda yaratilgan romanlarni o‘rganish, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ijodkorlar mahorati doirasida tahlil qilish, ushbu asarlarda ilgari surilgan gender tenglik, erkak va ayol o‘zaro munosabatlari mavzusi va konseptual g‘oyalarining badiiy ifodasining o‘ziga xos jihatlarini yoritishdek muhim masalalar adabiyotshunoslikning kun tartibidagi dolzarb muammolardan biridir. Gender munosabatlar mavzusining badiiy talqinini turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqish, tarixiy va adabiy rivojlanishdagi erkak va ayol munosabatlarining badiiy konsepsiyasi evolyutsiyasi xarakterini aniqlash mazkur sohada tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tug‘diradi.

Dunyo globallashuvi paytida adabiyotda gender munosabatlar masalasining tobora faol o‘rganib borilayotganligini inobatga olib, gender masalasining tarixiy va badiiy rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan XIX asr ingliz adabiyoti va birinchi navbatda, Viktoriya davri ayol yozuvchilari, xususan, Sh.Bronte ijodida aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish alohida e‘tiborga loyiqdir.

O‘zbek adabiyotshunosligida jahon mumtoz adabiyoti va adabiy jarayon qonuniyatlarini o‘rganish, jumladan ingliz adabiyoti vakillari ijodini tahlil qilish jahon adabiyoti tendensiyalarini yanada chuqur anglash, o‘zbek adabiyotining bu jarayondagi o‘rnini aniqlash, uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, gender masalasini Sh.Bronte ijodi misolida ilmiy tadqiq qilish hamda nazariy asoslarini belgilab olish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi

Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi

Jahon adabiyotshunosligida Viktoriya davri romani, adibalar nasri, feministik adabiyot taraqqiyoti kabi ilmiy-nazariy muammolar g‘arb, rus va mahalliy adabiyotshunoslar tomonidan muayyan izlanishlar olib borilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, zamonaviy adabiyotshunoslikda gender munosabatlar muammolarini to‘liq ilmiy tahlil qilishga urinishlar faqat so‘nggi o‘n yilliklarda amalga oshirildi. Ushbu mavzulardagi izlanishlar olib borgan G‘arb adabiyotshunoslaridan G.Mur, E.Fromm, L.Braun, A.Bebel, L.Gudman, E.Siksu, L.Irigaray, L.Robinson, rus tadqiqotchilardan Yu.Kristeva, A.Kolodnya, N.Shamina, E.Mitrofanova, M.Tugusheva, O.Demidova, L.Alyabyevalar¹ni ta’kidlab o‘tsak bo‘ladi. Mahalliy tadqiqotchilardan G.Darvishova, X.Muhammedova, N.Muhammedova, U.Fayzullayeva ishlarini e‘tirof etsak bo‘ladi. Bu tadqiqotlarda ingliz adabiyotida ayol obrazi va uning ijtimoiy maqomining o‘ziga xosligi, ayol ruhiyati tasviri, Sharlotta Brontening badiiy olami poetikasi mavzulari tahlil qilingan, adiba asarlari tarjimalarining qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqi amalga oshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasida ilmiy-tadqiqot rejasining “Jahon adabiyotini o‘rganish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Angliya Viktoriya davri adabiy jarayonida gender masalasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, XIX asrda ingliz jamiyatida erkak va ayol o‘zaro munosabatlarini, ayollarning o‘rni va rolining o‘zgarishini Sh.Bronte ijodida aks ettirilishining badiiy o‘ziga xosligini ochib berishdan iborat.

¹ The Feminist Reader / ed. by C. Belsey and J. Moore. – Basingstoke: Macmillan, 1997. – 265 p., Fromm. Иметь или быть? / Э. Фромм. - Fromm. – М.: Progress, 1986. – 240 s., Braun L. Jenskijvopros / L. Braun. – М.: [V. i.], 1922. – 567 s., Bebel A. Woman and Socialism / A.Bebel. – New York: Socialist Literature Co., 1910. – 502 p., Goodman L. Literature and Gender / L. Goodman. – London: Routledge Literature, 1996.-424 p., Cixous H. The Newly Born Woman / H. Cixous, C. Clement. – Manchester: Manchester University Press, 1987. – 168 p., Irigaray L. This Sex Which Is not One / L. Irigaray. – Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 1985. – 346 p., Critical Theory since 1965 / ed. by H. Adams & L. Searie. – Tallahassee: Florida State University Press, 1992. – 891 p., Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики. – М., 2004. – 280 с., Шамина Н.В. Исследование женской проблематики в произведениях писательниц викторианской эпохи/ Н.В.Шамина // Саранск, 2004. – Ч.1: Гуманиитарные науки. – с. 58-59., Митрофанова Е. Исследование женских проблем в Великобритании / Социологические исследования. – М., 1992. – 264 с., Тугусева М. В надежде правды и добра: Портреты писательниц/ М.П.Тугусева. – М.: Худож.лит., 1990. – 271 с., Демидова О.Р. Английский женский романи формирование «женского политического движения» в России XIX века [Электронныйресурс] / О.Р.Демидова. – <http://www.rami.ru/cosmopons/archives/4/9.html>, Алябьева Л. Как воспитать «организатора совершенного дома и будущую мать красивых и крепких детей»: дискуссии о женщине в спорте в викторианской Англии/ Л.Алябьева // Новое литературное обозрение. – 2004. – с. 94-128

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz adabiyotida gender aloqalar, ayollarning jamiyatdagi oʻrni va roli muammolari paydo boʻlishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarini ochib berish;

Angliya adabiy jarayoni va tarixiy-madaniy taraqqiyoti kontekstida Sharlotta Bronte asarlarini yaxlit holda atroflicha gʻoyaviy-badiiy tahlil qilish;

Sharlotta Brontening “Viktoriya davrida gender munosabatlar”, “Ayollarning jamiyatdagi oʻrni va roli” mavzularini tasvirlash xususiyatlarini oʻrganish;

Sh.Bronte ijodida gender mavzusining yoritilishi ingliz jamiyatini obyektiv voqeligining aksi va shu bilan birga ayol psixologiyasi va badiiy tafakkurining ifodasi ekanligini ilmiy asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” (“Jane Eyre”, 1847); “Sherli” (“Shirley”, 1849); “Shaharcha” (“Villette”, 1853); “Oʻqituvchi” (“The Professor”, 1857) romanlari tanlangan

Tadqiqot predmetini gender munosabatlar, ayollarning jamiyatdagi oʻrni va roli muammolarini Viktoriya davri jamiyatidagi ayollar ijtimoiy mavqeyi bilan bogʻliqligi va ularning Sh.Bronte asarlaridagi badiiy talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda oʻrganishni taʼminlashga qaratilgan: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, genetik poetika, badiiy matn tahlili, “matnni sinchiklab oʻqish”), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) metodlar majmuyi qoʻllanilgan. Shuningdek, badiiy asarni tahlil etish tamoyillari usullari hamda intertekstual interpretasiya uslublaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Viktoriya davri adabiyotida jamiyatdagi ayollar oʻrni va ahamiyati muammosining paydo boʻlishi shart-sharoitlarining davr ayol yozuvchilari ijodida oʻz aksini topgani aniqlangan;

Sharlotta Bronte asarlarida ayollar obrazining romantik obrazlardan realistik obrazlar sari taraqqiyoti adibaning hayotiy va ijodiy tajribalari bilan bevosita bogʻliq ekani asoslab berilgan;

Sharlotta Bronte ijodi misolida ingliz adabiyotida ayol nasrining ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligi, uning asarlarida gender munosabatlar mavzusining yoritilishi davr jamiyatining obyektiv voqeligining aksi va shu bilan birga ayol psixologiyasi hamda badiiy tafakkurining ifodasi ekani asoslangan;

Sharlotta Bronte romanlaridagi yangi ayol obrazi tasvirining badiiy oʻziga xosligi ochib berilgan.

Ishning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishining amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

gender munosabatlar, ayollarning jamiyatdagi oʻrni va roli muammolari mavzulari Viktoriya davri romanida markaziy oʻrinni egallab, XIX asr adabiyotida ushbu davrning tarixiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlari bilan belgilanadigan hukmron mavzulardan biri sifatida namoyon boʻlganligi izohlangan;

asarlarida gender munosabatlar muammosini talqin etuvchi Sh.Brontening ijodini g‘oyaviy-estetik va badiiy tamoyillarini baholash zarurati tug‘ilishi yoritilgan;

Sh.Bronte XIX asr ingliz ayol yozuvchilari orasida birinchilardan bo‘lib o‘z romanlarida ayol qahramonining nafaqat an‘anaviy oila sohasida, balki jamoat, kasbiy, xayriya va boshqa sohalarda o‘zini anglash va namoyon qilish imkoniyati mavjudligi g‘oyasini tatbiq qilishi yoritilgan;

Ayollar nasrining badiiy matnlarini tahlil qilishda «gender» tushunchasidan foydalanishni asoslab berilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti materiallari, uning asosiy mazmun va xulosalari, muayyan asarlarning tahlili ingliz adabiyoti tarixi, XIX asr G‘arb adabiyoti tarixi fanlaridan, Viktoriya davri romanini, Sh.Bronte ijodini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus kurslar va seminarlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, tahlilda foydalanilgan materialning ishonchli manbalardan olingani, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilganligi, adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilinganligi, chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan yangi yo‘nalishlar va mavzularning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish, XIX asr adabiy jarayoni tahlili bilan shug‘ullangan Britaniya adabiyotining yetakchi xorijiy va rus adabiy tarixshunoslarga tegishli umumnazariy va shaxsiy xarakterdagi ishlarda, shuningdek adabiyotshunos, tarixchi va sotsiologlarning gender munosabatlar muammosi va feminizm masalalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ishlarida tadqiq qilingan to‘laqonli ingliz madaniy xususiyatlarini umumlashtirish, tasniflash va xulosalashda, ingliz adibasi Charlotta Bronte ijodini o‘rganishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishidan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi”, “Jahon adabiyoti”, “Zamonaviy xorijiy adabiyot” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarni olib borish, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, ingliz adabiyoti bo‘yicha umumiy kurslarni o‘qitishda, ingliz tili va adabiyotini o‘rganuvchi to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Viktoriya davri adabiyotida jamiyatdagi ayollar o‘rni va ahamiyati muammosining paydo bo‘lishi shart-sharoitlarining davr ayol yozuvchilari ijodida o‘z aksini topgani haqidagi ilmiy natijalaridan Erasmus+ dasturining Key Action 107 loyihalarida doirasida foydalanilgan (Namangan davlat chet tillari institutining 2022-yil 31-noyabrdagi 85-01-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot loyihasi

Viktoriya davri adabiyoti, uning rivoji va jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi, xususan, davr ayol yozuvchilarining mashhur vakilasi Sharlotta Bronte tomonidan yaratilgan durdona asarlarida ko‘tarilgan gender, ya’ni erkak va ayol o‘zaro munosabatlari muammolari, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roli mavzularini yoritishda yozuvchi adabiy mahoratining namoyon bo‘lish tamoyilari, muallifning ushbu mavzularga davr ijtimoiy, madaniy, badiiy, falsafiy tafakkuri negizida yondashuviga oid materiallar va natijalar bilan boyitilgan;

Sharlotta Bronte asarlarida ayollar obrazining romantik obrazlardan realistik obrazlar sari taraqqiyoti adibaning hayotiy va ijodiy tajribalari bilan bevosita bog‘liq yekani, shuningdek, uning romanlaridagi yangi ayol obrazi tasvirining badiiy o‘ziga xosligi masalasidagi olingan natijalar va materiallardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Turkiy tilli davlatlar yosh ijodkorlari Forumi” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022 yil 10 noyabrdagi 01-03/1438-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha turkiy tilli davlatlar adabiyotida gender munosabatlar mavzusini yoritilishi va bunga ingliz adabiyotining ta’siri, jumladan, Viktoriya davri ijodkorlarining qo‘shgan hissasi bilan bog‘liq muammolarni, yosh ijodkorlar asarlarida erkak va ayol munosabatlari, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roli mavzulari, Sh.Bronte asarlarining ilmiy tadqiqi bilan bog‘liq muammolarga doir materiallar bilan boyitilgan;

Sharlotta Bronte ijodi misolida ingliz adabiyotida ayol nasrining ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligi, uning asarlarida gender munosabatlar mavzusini yoritilishi davr jamiyatining obyektiv voqeligining aksi va shu bilan birga ayol psixologiyasi hamda badiiy tafakkurining ifodasi ekani haqidagi ilmiy materiallardan Namangan viloyat televideniyesi tomonidan efirga uzatilgan “Guldasta” ko‘rsatuvining adabiyot ruknida foydalanilgan (Namangan viloyat televideniyesining 2022-yil 16-noyabrdagi 02-4-539-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv audiyensiyasi xorijiy adabiyot, uning tarixi va rivoji, xususan, XVIII asr ingliz Viktoriya davri yozuvchilari hayoti va ijodi, ular ko‘targan mavzulari, shuningdek, davr ijodkori Sharlotta Bronte asarlari misolida davr adabiyotida gender munosabatlar muammosi, ayol va jamiyat, gender tenglik va ayollarning oiladagi o‘rni haqidagi materiallar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza shaklida taqdim etilib, aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy nashr etilgan bo‘lib, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda, shuningdek, 2 ta uslubiy qo‘llanma va mahalliy nashrda 1 ta maqola elon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, umumiy hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon qilingan. Respublika fan va texnologiyalar komitetining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatilgan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishonchliligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Viktoriya davri adabiyotida gender muammolarning badiiy talqini”** mavzusida bo‘lib, 2 fasldan iborat. Uning birinchi fasli **“Viktoriya davrida gender munosabatlar sohasidagi o‘zgarishlarning adabiy jarayonga ta’siri”** davri” deb nomlanadi. Hammaga ma‘lumki, ingliz adabiyotining tarixiy rivojiga Viktoriya davri ijodkorlarining qo‘shgan hissasi juda ham salmoqli. Viktoriya davri yozuvchilari o‘z o‘tmishdosh ijodkorlarning an‘analariga tayanib, yangi mavzular, motivlar va uslublarni ishlab chiqish bilan birga, ingliz realistik nasrini boyitishda o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar. Ularning asarlari XX asr ingliz adabiyotining eng muhim kashfiyotlari uchun asos bo‘ldi.

Viktoriya davri romanining rivojlanishida Ch.Dikpens, U.Tekkerey, T.Xardi va boshqa erkak yozuvchilar bilan bir qatorda, J.Osten, opa-singil Brontelar, J.Elliott, E.Gaskell kabi ayol yozuvchilar ham muhim o‘rin tutishgan. Bu ayol yozuvchilarning o‘sha davrga xos mafkuraviy qarashlarni, ijtimoiy tuzum hamda an‘anaviy oila me‘yorlari va turmush tarzini o‘zgartirish zarurligiga ishonchi, yangi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni qaror toptirishga tayyorligi ularning ijodida o‘zining tabiiy va adekvat ifodasini topdi.

Erkak va ayol o‘zaro munosabati, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roli muammolari murakkab va ko‘p qirralidir va shuning uchun hamon ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu muammoni to‘liq ilmiy tahlil qilishga urinishlar faqat so‘nggi o‘n yilliklarda amalga oshirildi.² XIX asr G‘arbiy Yevropaning ijtimoiy-madaniy ongi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roli mavzulari (ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeyi, erkaklar va ayollar teng huquqliligi g‘oyasi, ayollar uchun ajralishni yengillashtirish mavzusi, ularning fuqarolik nikohiga bo‘lgan huquqlari) badiiy ong va ijodning rivojlanish qonuniyatlarining o‘lchovlaridan biri sifatida Viktoriya davri yozuvchilarining ijodiy merosida muhim o‘rin tutadi.

² Алябьева Л. Как воспитать «организатора совершенного дома и будущую мать красивых и крепких детей»: дискуссии о женщине и спорте в викторианской Англии / Л.Алябьева // Новое литературное обозрение. – 2004. – с. 94-128., Демидова О.Р. Английский женский роман и формирование «женского политического движения» в России XIX века [Электронный ресурс] / О.Р.Демидова. – <http://www.rami.ru/cosmopons/archives/4/9.html>, Демидова О.Р. Женский вопрос в произведении Шарлотты Бронте и Джордж Эллиот / О.Р.Демидова; Ленингр. гос. пед ин-т. им А. И. Герцена. – Л., 1988. – 17 с., Mills S. Feminist Stylistics / S. Mills. – London: Routledge Literature, 1995. – 240 p.

Viktoriya davri yozuvchilari o‘z asarlarida zamondoshlari hayotini, erkaklar va ayollar teng huquqliligi, ingliz jamoatchiligi ro‘baro kelayotgan feminizm muammolarini obyektiv aks ettirishga, shuningdek, yangi ustuvor yo‘nalishlar va ijtimoiy qadriyatlar rivojlanishini ko‘rsatishga intilishadi. Xususan, V.Vulfning «Shaxsiy xona» (1929), Sh.Brontening “Jeyn Eyr”, J.Elliotning “Midllmarch”, Sh.Gilmanning “Sarg‘ish devor qog‘ozlari”, E.Brauningning “Avrora Li”, V.Kollinzning “Oq libosdagi ayol” kabi asarlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolar o‘z aksini topgan. Bu esa ular adabiy ijodini butun Viktoriya davrining ma‘naviy sohadagi o‘zgarishlarga o‘ziga xos reaksiyasi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Bobning **“Viktoriya davri adabiyotida ayol obrazi tasviridagi yangi chizgilar”** deb nomlangan ikkinchi fasli Viktoriya davrida ijod qilgan Elizabet Gaskel, Sharlotta Bronte, Emili Bronte, Enn Bronte, Jeyn Ostin, Jorj Elliot, Xarriet Martino, Meri Breddon kabi bir qator ayol yozuvchilar ijodidagi ayol obrazlari tahliliga bag‘ishlangan. Bu ayol yozuvchilar adabiyotga yangicha ruh, yangicha mavzu va muammolar bilan kirib kelishdiki, bu kabi xususiyatlar avvalgi adabiyotga xos emasdi. Ingliz jamiyatida muqarrar va mustahkam o‘rin egallagan ayrim ijtimoiy an‘analar, urf-odatlar, turmush tarzi va madaniy rasmiyatchiliklar qat‘iyligi va keskinligi, shuningdek, yana bir qator muammoli tomonlari bilan ayollarning erkinligini cheklardi. Aynan shu kabi muammolarni yuqorida nomlari sanab o‘tilgan ayol yozuvchilar o‘zlarining ijodlarida badiiy aks ettirishdiki, bu esa o‘z o‘rnida adabiyotda ayolning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatiga qaratilgan ilk urinishlardan bo‘ldi. Eng muhim jihati, Viktoriya davri ayol yozuvchilari asarlarida bosh obraz sifatida ayol kishi tanlandi.

Elizabet Gaskel o‘z asarlarida kuchli, mustaqil va ishbilarmon ayol obrazini yaratishga harakat qilgan. Uning bunday obrazlari Viktoriya davridagi mavjud ayollar stereotipiga qarshi o‘laroq yaratilgandi. Masalan, “Meri Barton”³ romanida Elizabet Gaskel erining chizgan chizig‘idan chiqmaydigan, o‘zining shaxsiy qarashlari va orzu-umidlariga ega bo‘lmagan, faqat oilaviy yumushlar bilan band bo‘lgan va kuchli ahloqiy xarakterga ega farishtamisol ayol stereotipi haqidagi qarashlarni rad etadi. Adiba bunday ayollar faqatgina yuqori va o‘rta sinf tabaqalariga mansub oilalardagina bo‘lishi mumkinligini, bunday sinf oilalar o‘ziga to‘qligi sababli ayollar faqat uy yumushlari qilish bilan chegaralanishi mumkinligini, quyi tabaqaga mansub oilalarda esa ayollar oilani boqish uchun erkaklar bilan tengma-teng ishlashlariga to‘g‘ri kelishi va bu ularning oiladagi o‘rnini tamomila boshqacha ko‘rinishga olib kelishini ko‘rsatib beradi. Ishchilar sinfiga mansub ayollar ishlaydigan fabrikalardagi og‘ir shart-sharoitlar ideal ayol tushunchasini butunlay yo‘qqa chiqarardi. Biroq “Meri Barton” romanidan anglashiladigan g‘oyaga ko‘ra ayol kishidagi haqiqiy oliyjanoblik uning kiyinishi, o‘zgaralar ko‘ziga chiroyli ko‘rinish va yurish-turishga soxta hamda majburiy intilishi bilan emas, balki uning qalb go‘zalligi bilan belgilanishi lozim.

Emili Brontening asarlaridagi ayol obrazlari tasviri ayollar rollarining murakkabligini va jamiyatdagi ayollar uchun mavjud cheklovlarning ularning

³ Gaskell E. / Mary Barton. – London: The Everyman Library, 1996. – 440 p.

hayotiga ta'sirini ko'rsatishi bilan bevosita bog'liqdir. Uning asarlari asosan ehtiros, sevgi, jamiyatda mavjud muammolarni yechimiga bo'lgan umidlar va bu umidlarni rad etish oqibatlari mavzularini o'rganadi. Adiba o'z qahramonlari orqali 19-asr ingliz jamiyatida ayollarning boshidan kechirgan murakkab hayot tashvishlari va muammolarini tasvirlab beradi. Emili Bronte o'z asarlarida ayol obrazlarini mukammal va ko'p qirrali shaklda tasvirlash orqali odatiy Viktoriya jamiyatidagi gender muammolari va yechimini kutayotgan masalalarni badiiy talqin etadi.

Viktoriya davri adabiyotidagi yana bir iste'dodli ayol yozuvchi Jeyn Osten bo'lib, uning asarlarida tez-tez takrorlanadigan mavzulardan biri bu ayol qahramonlar hayotidagi moliyaviy barqarorlik hamda ijtimoiy mavqening ahamiyatidan iboratdir. Osten o'z qahramonlari orqali jamiyatda ayollar duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlar hamda shu chegaralar ichida sevgi va baxtga intilish haqida mukammal izoh beradi.

Jeyn Ostenga qadar hech bir yozuvchi ingliz adabiyotida ayollarning turfa xil, har bir ijtimoiy qatlamga xos obrazlarini yaratmagandi. Kitobxon adiba asarlaridagi personajlarning shaxsiy hayotlari bilan yaqindan tanisharkan, odamlarning, ayniqsa, er-xotinlarning o'rtasidagi ijtimoiy masala va muammolarni chuqurroq anglab boradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Jeyn Osten ijodining salmoqli hissasini oila va nikoh masalalariga bag'ishlangan asarlar tashkil etadi⁴.

Jeyn Osten romanlari jamiyatda qiyinchiliklarga duch kelgan, lekin oxir-oqibat o'z muhabbatiga yetishgan ayollar taqdiri haqida so'zlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 19-asrda ayollar, ularning fikr-o'ylari, orzu-umidlari haqida yozish bu katta qahramonlik edi. Jeyn Ostenning qahramonlari o'z huquqlarini talab etuvchi erkin ayollardir.

Enn Brontening eng ko'zga ko'ringan ayol qahramonlaridan biri bu Helen Hantington obrazidir. Helen kuchli va mustaqil ayol bo'lib, turmushdan ajralgan va ajralayotgan ayollarni qattiq qoralanayotgan bir paytda aroqqa mukkasidan ketgan va zo'ravon eri Artur Hantingtonni jasorat bilan tark etadi. U azob-uqubatli nikohdan qochib, o'zini va o'g'lini himoya qilishga qaror qilgani ayollarning jimgina azob chekishlarini kuzatayotgan jamiyat me'yorlariga qarshi dadil harakatiga misoldir.

Romanning asosiy mavzusi – Helenning shaxsiy baxt va mustaqillikka intilishidir. U ayollarning bo'ysunish va itoatkorlik haqidagi an'anaviy qarashlariga qarshi chiqib, faqat xotin va ona roli bilan cheklanish g'oyasini rad etadi. Buning o'rniga, u o'z vakolati va hayotini nazorat qilishga intiladi, hatto ijtimoiy tajovuz ham bunga to'sqinlik qilolmaydi.

Enn Bronte personajlarining yana bir e'tiborga molik jihati – ularning ma'nan kuchli va chidamliligiga e'tibor qaratganligidir. Xelen Xantingdon axloqiy jihatdan to'g'ri va qat'iyatli deb ta'riflanadi. Uning harakatlari ikkiyuzlamachilik bilan ajralib turadigan jamiyatda o'z qadriyatlarini himoya qilish jasoratini aks

⁴ Амелина, Т.А. Проблема реализма в творчестве Джейн Остен (Метод и стиль): Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук. – СПб., 1973. – с. 49.

ettiradi. Uning o'z tamoyillariga qat'iy sodiqligi ayollarning erkaklardan ma'naviy jihatdan zaifroq yoki qobiliyatsiz ekani haqidagi g'oyani rad etadi.

Umuman olganda, adabiy jarayonlarda o'z aksini topgan ayollar muammosi ijtimoiy va siyosiy sohalarda ham kun tartibidagi masalaga aylana bordi. Adolat yuzasidan shuni ta'kidlaymizki, XIX asrda Angliyada sodir bo'lgan jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar zodagon va badavlat ayollarning hayotiga kamroq ta'sir ko'rsatdi, ularning aksariyati erkak qarindoshlari homiyligida qolishni afzal ko'rdi. Natijada ko'plab ayollar siyosiy guruhlarini rasmiy ravishda faqat o'rta qatlam vakillari nomidan gapirdilar, garchi ular barcha ingliz ayollarining manfaatlarini xolisona ifoda etgan bo'lsalar ham. Aynan xotin-qizlar harakati Angliyada Viktoriya davridagi ijtimoiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo'lganligi va G'arbiy Yevropa tarixida birinchi marta mustaqil, ommaviy, uyushgan ko'rinish kasb etgani ahamiyatlidir.

Tadqiqotning 2-bobi **“Sharlotta Bronte asarlarida ayol obrazi badiiy talqinining evolyutsiyasi”** deb nomlanadi. 1-fasl **“Sharlotta Bronte asarlarida ayol obrazini yaratish muammolari”** deb nomlangan. Bu faslda Sharlotta Brontening ilk asarlaridan to Jeyn Eyr obrazigacha bo'lgan ayol obrazlari tahlil etilgan. Bronte opa-singillar o'qishni juda xush ko'ruvchi, cheksiz tasavvurga ega bo'lganliklari tufayli, ular o'zlari yaratgan ilk hikoyalar to'plamini **“Angriya dostonlari”** deb atashgan.

Doston qahramonlari halokatli go'zallar va iblis yovuzlar, shafqatsiz hukmdorlar yoki oliyjanob qaroqchilar – bir so'z bilan aytganda, g'ayrioddiy obrazlardan tashkil topgan. Ular ulkan jasorat yoki dahshatli jinoyatlar qilishadi, ularning hayoti ehtirolarga boy. Dostondagi hikoyalar, qisqa qilib aytganda, fantastik hamda xayoliy olam asosiga yaratilgan. Mazkur asarlardagi ayol obrazlari ham real hayotdan uzoq bo'lgan romantik obrazlar bo'lib, Sharlotta Brontening keyingi ijodiga xos bo'lgan realistik obrazlarning tamomila teskarisi edi.

“Angriya” dostonidagi hikoyalarini yaratish mobaynida yosh Sharlotta Brontening dunyoqarashi romantik uslubga moyil edi. Adiba 1820-1830-yillarda dunyo haqidagi tasavvurlarini o'zining ruhiy holati va ideallariga muvofiq shakllantirgan.

Dostondagi hikoyalarning asosiy xususiyati ularning ertakligidadir. Bu esa sagalar haqida romantik asar deyishga asos bo'lib, unda fantastikani kundalik hayot bilan qarama-qarshi munosabatlarga olib keladi. Sagalarda asosan, ikkita element hukmronlik qiladi – romantik va gotik. Ular bir-biriga bog'liq va ularni alohida ko'rib chiqish mumkin emas.

“Kerolin Vernon” hikoyasida Bronte ehtiros va aql o'rtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi. Zamorning sevgilisi Karolin keyinchalik, chidab bo'lmas azob-uqubatlarga sabab bo'ladigan qarama-qarshi tuyg'ularga berilib ketadiki, unda sevgi va burch hissi, ishtiyoq va vijdon amri kurashadi. Biroq u ehtirosqa qarshi turish uchun o'zida kuch topa oladi.

Keyingi hikoyalardan birida (**“Kapitan Genri Xastings”**) Bronte avvalgi qahramonlaridan tubdan farq qiladigan qahramon (Elizabet Hastings) paydo bo'ladi. Bu qambag'al, kamtar, xunuk oddiy bir qiz obrazi bo'lib, muallif uni ideallashtirmaydi, bo'rttirmaydi, balki uni oddiy ingliz zamonaviy qizi sifatida

tasvirlaydi. Lekin, tashqi ko‘rinishda jozibali bo‘lmagan Elizabet kuchli axloqiy e‘tiqodga ega bo‘lib, u o‘z mehnati bilan pul topishni afzal ko‘radi. Insonning tashqi qiyofasi uning ichki fazilatlariga mos kelmasligi mumkinligini Bronte allaqachon tushunib yetgan. Bir tomondan, Elizabet eng ulug‘vor tuyg‘ularga ega obraz sifatida badiiy aks ettirilsa, ikkinchi tomondan, u o‘zida alangalangan ehtirosni yengish va burch yo‘lida sevgidan voz kechish uchun o‘zida kuch topa oladigan qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Keyinchalik Elizabet Hastings obrazi xuddi shu nomdagi Bronte romani qahramoni Jeyn Eyr va “Shaharcha” romani qahramoni Lyusi Snou obraziga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yozuvchi “Sherli” romanida realistlik, tarixiy jihatdan adekvat, ijtimoiy shartli obrazlar yaratadi, Bronte navbatdagi romanida yosh, kuchli xarakter va kuchli irodaga ega aqlli qiz obrazini yaratadi. Uning obrazida ham realistlik, ham romantik xususiyatlar mujassam.

Romantizm o‘zining hukmronlik mavqeyini yo‘qotgan bir paytda, realizmning gullab-yashnagan davrida mualliflar romantizm va realizm taqdim etgan imkoniyatlardan uyg‘un holda foydalanadilarki, natijada tasvirning plastikligi va ko‘p qirraliligiga erishiladigan asarlar paydo bo‘ladi. Bular "Devid Kopperfild", "Kichik Dorrit", Dikkensning "Buyuk umidlar", Emili Brontening "Momaqaldiroqli dovon" va boshqalar. Sharlotta Bronte tomonidan yozilgan “Jeyn Eyr” ham ana shunday kitoblardan biridir.

Bobning 2-fasli **“O‘qituvchi” romanida gender muammolarning ilk tasviri** deb nomlanadi. “O‘qituvchi” romani o‘zining avtobiografik tabiati bilan ajralib turadi. Romanning ruscha nashrlaridan birining so‘ngi so‘zida shunday deyilganligi bejiz emas: “Asarning sahifalarida Sharlotta Bronte o‘z fikrlari va his-tuyg‘ulari, og‘ir bolaligi va quvonchsiz yoshligi to‘laqonli aks etgan. Adibaning keyingi barcha mashhur asarlaridagi qahramonlarning taqdiri va qarashlari kitobxonga unchalik ma‘lum bo‘lmagan “O‘qituvchi” romanidan o‘tib kelgan”⁵. Sh.Brontening birinchi romani, garchi hayoti davomida nashriyotlar tomonidan rad etilgan bo‘lsa-da, baribir o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Sharlottaning Bryusseldagi shaxsiy tajribasining ijodiy timsoli bo‘lgan “O‘qituvchi” romani keyinchalik “Shaharcha” romanining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Bu roman texnik nomukammalligiga qaramay, erkak va ayol roli hamda ularning munosabatlari yoritib berilgan yozuvchi tomonidan amalga oshirilgan dastlabki urinishlaridan biridir. Sh.Foster haqqoniy ravishda ta’kidlaganidek, “bu romanning eng muhim jihati Sharlotta Brontedagi dualizm tuyg‘usini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan voqealarning erkak qahramon nomidan hikoya qilinishidir”⁶.

Shuni ta’kidlash lozimki, Sh.Bronte dastlab erkak yozuvchi taxallusini tanlashi orqali o‘zining ayol jinsiga mansubligini yashirish maqsad qilgan. Biroq bunday taktika, bizningcha, uning “erkaklik” va “ayollik” kabi tushunchalarni o‘rganishga bo‘lgan yashirin istagini aniq ko‘rsatib turibdi.

⁵ Бронте Ш. Учитель / Ш.Бронте; пер. с англ. Н.Флейшман; послесл. Е.Тепловой. – СПб.: НПО «Мир и семья – 95», 1997. – 384 с. (355)

⁶ Foster Sh. Victorian Women's Fiction: Marriage, Freedom, and the Individual / Sh.Foster. – [S.l.]: Croom Helm Ltd., 1985. – 240 p. (80)

Sh.Bronte “O‘qituvchi” romanida erkaklarning ayollar ustidan hukmronligiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Ayollar muammosi ko‘tarilishi asosiy maqsad qilib qo‘yilgan romanda bosh qahramonning erkak kishi qilib tanlanishining ham o‘ziga yarasha sabablari bor edi. Bunday uslubiy yondashuv Sharlotta Brontega ayol jinsi vakillariga obyektiv baho berish imkonini beradi. Krimsvort obraziga romanda tanqidchi va tahlilchi vazifasi yuklatilgan. Uning o‘y-fikrlari aslida Sharlotta Brontening o‘y-fikrlari bo‘lib, o‘z davrining erkaklarining ayollar haqidagi fikrlarini Krimsvort orqali ochiq-oshkora bayon etadiki, bu o‘sha davr ingliz jamiyatidagi hamma tomonidan, har tomonlama qabul qilingan ideal ayol g‘oyasining salbiy va ayanchli tomonlarini fosh etish edi. Misol uchun u ayollar maktab-internatida hisob-kitobli va tannoz o‘quvchi qizlarni masxara va nafrat obyekti sifatida tanlab ochiq-oydin Sh.Brontening tili bilan gapiradi. Dastlab Krimsvort ularni “farishtalar” sifatida qabul qiladi, lekin vaqt o‘tib ularda faqat yagona maqsadi o‘zining sun’iy jozibasi bilan er topish niyatida bo‘lgan «o‘taketgan tannoixonlarni» ko‘radi.

“O‘qituvchi” romani erkak va ayol o‘rtasidagi, ayollar va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. “O‘qituvchi” asarida Uilyam Krimsvort va Frensis Anri o‘rtasidagi sevgi iztirobi qiyinchiliklarini tasvirlangan. Garchi ular bir-biriga ko‘ngil qo‘yishsa-da, ijtimoiy to‘siqlar, sinfiy farqlar va oilaviy tushunmovchiliklar ularning munosabatlarida keskinlikni keltirib chiqaradi.

Shu jumladan, ayol va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat masalasi ham asarning markaziy g‘oyalardan biridir. Frensis Anri xarakteri ham o‘zining noan’anaviy xatti-harakatlari va g‘oyalari tufayli jamiyatda ziddiyatlarga duch keladi. Mustaqillik va intellektual yutuqlarga intilayotgan ayol sifatida u atrofida gilar tomonidan tanqid va qarshilikka duch keladi.

Romandagi gender muammolarining eng muhim tadqiqi Frensis Anri xarakteri orqali amalga oshiriladi. Frensis jinsi tufayli o‘zini namoyon qilish va o‘z ishida martabasi ortishi imkoniyatlaridan bir necha bor mahrum bo‘lgan. U erkaklarning yordamiga tayanishga majbur bo‘ladi va ko‘pincha o‘z xohish-istaklari va intilishlari bo‘lgan odam emas, balki oldi-sotdida foydalaniladigan bir tovar sifatida ko‘riladi. Frensis orqali Bronte jamiyat tomonidan kutiladigan an’anaviylikdan xalos bo‘lishga intilayotgan ayollar duch keladigan qiyinchiliklar va umidsizliklarni ta’kidlaydi. U, shuningdek, Viktoriya jamiyatidagi ayollarning salohiyatini bo‘g‘ib qo‘ygan gender tengsizligi va ijtimoiy me’yorlarni keskin tanqid qiladi. Frensis bu me’yorlarga qarshi isyonni ifodalaydi va uning hikoyasi qiyinchiliklarga qarshi kurash va sabr-toqat ramzidir. Umuman olganda, “O‘qituvchi” Viktoriya jamiyatidagi gender muammolarini o‘rganuvchi kuchli asardir. U gender rollarining cheklovlari va adolatsizligini keskin tanqid qiladi va individuallik va tenglik uchun kurashning muhimligini kuchli eslatib turadi.

3-bob “**Sharlotta Bronte romanlarida gender tengsizlik muammosining yoritilishi**” deb nomlanib, birinchi fasl “**Jeyn Eyr**” romanida ayollar emansipatsiyasi muammolarining badiiy talqini” masalasiga bag‘ishlangan.

Ayollarnig jamiyatdagi o‘rni va roli, gender munosabatlar muammolariga e’tiborning ortishi Sh.Brontega keng adabiy shuhrat keltirgan “Jeyn Eyr” romani ta’siri bilan bog‘lanadi. Garchi bu turdagi romanlar Viktoriya davri ayollarning

ijtimoiy va siyosiy huquq borasidagi cheklovlardan qiynalishi haqida aniq ma'lumot bermasa ham, shuningdek, ayollar faoliyatining chegaralanganligidan noroziligini ancha yuzaki ifodalasa hamki, ular o'rganilayotgan tarixiy davrning umume'tirof etilgan me'yorlarini shubha ostiga qo'yadi. Bundan tashqari, bu me'yorlar ikki bazaviy qoida kontekstida ko'rib o'tiladi: bir tomondan, bu sevgi ustuvorligiga ishonch, boshqa tomondan, faqat nikoh o'zining ideal timsolida ayolga ruhiy qanoatlanish uchun yagona imkoniyat beradi degan ishonchdir.

“Jeyn Eyr” romani bosh qahramoni Jeyn o'z davrining gender me'yorlariga qarshi bo'lgan irodali va mustaqil ayoldir. U passiv va itoatkor ayol bo'lish g'oyasini rad etadi, o'z tanlovini qilish va o'z tamoyillariga muvofiq yashash huquqini himoya qiladi. Roman davomida Jeyn ko'plab qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladi. U ayolning muloyim va itoatkor bo'lishini talab qiladigan jamiyatning qarashlari bilan kurashishga majbur bo'ladi va u ko'pincha bu qarashlarni oqlashdan bosh tortgani uchun jazolanadi. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, Jeyn o'z tuyg'usiga va o'z xohishlariga sodiq qoladi hamda jamiyat tomonidan unga qo'yilgan cheklovlar bilan cheklanib qolishdan bosh tortadi. Umuman olganda, Jeyn Eyr gender tengsizligi va uning ayollar erkinligi va salohiyatini cheklash usullarini qattiq tanqid qiladi.

Bobning ikkinchi fasli **“Sherli” va “Shaharcha” romanlarida ayol va jamiyat muammolarining badiiy tasviri** deb nomlangan. 1849-yilda Charlotta Bronte “Sherli” romanini yozdi. “Sherli” asosini to'quv fabrikasi ishchilarining o'z egasi janob Murga qarshi chiqishlari tashkil etganiga qaramay asarda muhim o'rin gender aloqalar, ayollar muammolari, ayol obraziga berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bir qator G'arb adabiy tadqiqotlarida⁷ ayollar o'z o'zining u yoki bu shakllarini ifodalashda “Sherli” romanida yozuvchi turli hikoya mavzularidan foydalanganiga ishora qilinadi: masalan, erkaklar hukmron jamiyatda ayollarning tobeligi romanda sanoatdagi o'zgarishlar va ekspluatatsiya bilan bog'liq ziddiyatlarda bo'lgan ishchi sinf vakillarning holati bilan parallel ravishda ko'rib chiqiladi. Asarda ayollarning nikoh bilan bog'liq muammolarini keng ko'lamli tadqiq qilinishi ham alohida ahamiyatga ega. Bu muammolar “Sherli” romanida “Jeyn Eyr”ga qaraganda yozuvchining ko'proq diqqat markazida bo'lib, ushbu mavzularni har tomonlama ko'rib chiqadi va “turmush qurish – ayol uchun eng oliy yutuq” degan g'oyaga qarshi chiqadi. Romanda ayolning ikkita “qarama-qarshi” holati – tobelik va mustaqilligi muhokama qilinadi.

Yozuvchi “Jeyn Eyr”da nikohning ustunligini, garchi unda har xil turdagi munosabatlar mavjud bo'lsa hamki, shubha ostiga qo'ymaydi, “Sherli”da esa turmush qurish masalasi yoki yolgizlikning afzalliklari hamda kamchiliklari kabi muammolarni tadqiq qiladi va baholaydi.

